



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 674 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Tojirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umda	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdualilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector	481
Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....	486
И.Ж.Исаков	
O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish	490
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi	
Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....	497
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li	
Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari	503
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
Переход к зелёной энергетике узбекистана как возможность достижения устойчивого экономического роста	508
Бай Жин Хуан (Bai Jin xuan)	
Изучение условий финансирования проектов международными банками развития	513
Жалилова Барнохон Суръатжоновна	
O'zbekiston respublikasi budjet jarayonida budjetlarning ochiqqligi va jamoatchilik ishtirokini oshirish.....	517
Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li	
Chiqib ketayotgan aktivlarni hisobga olish va baholash masalalari	522
Kuziyeva Dinora Bahodirovna	
Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.....	528
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Changes in employee benefits and human resource management in accounting system of the Republic of Uzbekistan	535
Ravshanbekov Lazizbek Tolibjon o'g'li, Toshpulatova Munisabonu	



Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'molini boshqaruvining raqamlashtirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari.....	541
Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
Теоретические аспекты налогообложения доходов физических лиц на основе всеобщего декларирования	547
Усманова Мухлиса Сагдуллаевна	
Bank tizimini raqamlashtirish va uning bank barqarorligiga ta'siri.....	555
Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich	
Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni	560
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari	565
Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich	
Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия	570
А.И. Лесников, Д.В. Мамаева	
Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику	580
Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи	
Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish	586
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva Maxliyoxon Xayrullayevna	
Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari	591
Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li	
The main directions for improving innovative activities in agriculture	598
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi	605
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari	610
Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna	
Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar	615
Boymatov Xoliyor Qurbonovich	
Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan	621
Alimov Ilhomjon Ikromovich	
Проблемы и резервы развития пищевой промышленности в экспортном направлении.....	628
Ўролова Севара Бехзод кизи	
Оценка степени риска инновационной деятельности	634
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari.....	638
Maxkamova Sayyora Shokirovna	
Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	641
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Soliq ma'murchiligida nazorat funksiyasi va unda kameral soliq tekshiruvi hamda takomillashtirish yo'llari.....	648
Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li	
Sanoat korxonalarida xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari	653
Safarov Javohir Ismoilovich	
Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish masalalari	659
G'aniyev Zafar Usanovich	
Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi faoliyati.....	666
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
Tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir qiluvchi omillar	670
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



TIBBIYOT MUASSASALARINING MOLIYAVIY TA'MINOTI VA RESURLARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
ORCID: 0009-0000-7079-6786

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va mavjud resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda sog'liqni saqlash tizimining moliyalashtirishdagi mavjud muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Empirik ma'lumotlar asosida tibbiy xizmatlar sifati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiyot muassasasi, moliyalashtirish, ichki omillar, tashqi omillar, sog'liqni saqlash, resurslardan foydalanish, samaradorlik.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of internal and external factors influencing the financial provision and resource utilization mechanisms in medical institutions. The study identifies key challenges in healthcare funding and proposes targeted recommendations to improve the system. Empirical findings highlight the correlation between the quality of medical services and the financial stability of healthcare facilities.

Key words: medical institution, healthcare funding, internal factors, external factors, resource utilization, financial stability, efficiency.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на механизмы финансового обеспечения и использования ресурсов в медицинских учреждениях. На основе проведенного исследования выявлены ключевые проблемы финансирования системы здравоохранения и предложены пути их устранения. Эмпирический анализ позволяет установить взаимосвязь между качеством медицинских услуг и финансовой устойчивостью учреждений.

Ключевые слова: медицинское учреждение, финансирование, внутренние факторы, внешние факторы, здравоохранение, использование ресурсов, эффективность.

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik sohalardan biri hisoblanadi. Tibbiyot muassasalarining barqaror faoliyati, avvalo, ularning moliyaviy ta'minoti va mavjud resurslardan oqilona foydalanishiga bevosita bog'liqdir. Bu holat, ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasida ko'payib borayotgan ehtiyojlar, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabining ortib borishi sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslarning shakllantirilishi va ularning samarali boshqaruvi tibbiyot muassasalarining xizmat sifati, qulaylik darajasi, innovatsion yangiliklarni joriy etish qobiliyati hamda aholining salomatligini saqlab qolishdagi o'rnini belgilab beradi. Shu boisdan, tibbiyot muassasalarida moliyaviy ta'minotni tashkil etish va resurslardan foydalanish tizimi turli omillar ta'sirida shakllanadi, ularning aksariyati esa ichki (tashkiliy, boshqaruv, mehnat resurslari bilan bog'liq) va tashqi (iqtisodiy muhit, davlat siyosati, demografik va epidemiologik holat) tabiatga ega. Mazkur maqolada aynan mana shu omillarning xarakteri, ular qanday mexanizmlar orqali tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi hamda mavjud tizimni takomillashtirishga doir yondashuvlar tahlil



qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi davrda sog'liqni saqlash tizimida raqobatbardosh, iqtisodiy jihatdan bardavom bo'lgan tibbiyot muassasalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, jumladan, "2022–2026-yillarda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyasi" moliyaviy boshqaruvda yangicha yondashuvlar joriy etish zaruratini taqozo etmoqda. Shunday ekan, ushbu ilmiy izlanish tibbiyot muassasalarining moliyaviy resurslari bilan bog'liq bo'lgan amaliy muammolarni chuqur tahlil qilish, ularni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlash hamda kelgusida ushbu tizimni takomillashtirishga doir asosli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

J.Kutzin[1] moliyaviy ta'minotning ustuvor tamoyillarini – moliyalashtirish manbalarini, resurslarni yig'ish va taqsimlash mexanizmlarini – tahlil qiladi. Muallif tibbiyot muassasalarida barqaror moliyalashtirish uchun soliqlardan tortib sug'urta va to'lovga asoslangan tizimlarga bo'lgan turli modellarni solishtiradi. Uzoq muddatli samaradorlik uchun moliyaviy xavflarni birgalikda bo'lishish (risk pooling) va ijtimoiy himoya tamoyillari bo'yicha tavsiyalar beradi, bu esa O'zbekiston kontekstida ham moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim yo'riqnomadir.

M.Roberts va hamkasblari[2] sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning moliyaviy va institutsional omillarini keng qamrovda o'rganadi. Ular moliyalashtirishning adolatlari mexanizmlarini – maqsadli subsidiyalar, protsentga asoslangan byudjet sarf-xarajatlari va xizmatlar hamda dori-darmon xarajatlarini markazlashgan tartibda nazorat qilish bo'yicha amaliy misollar keltiradilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, resurslardan samarali foydalanish uchun dorilar va texnologiyalar xaridini markazlashtirish, shuningdek, provayderlar narxini kelishish orqali xarajatlarni boshqarish zarur.

S.Kumbhakar va C.Lovell[3] moliyaviy samaradorlikni o'lchash usullarini – parametric "stoxastik fronteyr" tahlilini – taqdim etadilar. Ular tibbiyot muassasalarining resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun ishlab chiqilgan modellarda kiritiladigan omillar (xodimlar soni, texnologiya darajasi, klinik yuk) va tasodifiy xatolikni hisobga olish metodologiyasini tushuntiradilar. Mazkur uslub moliyaviy ta'minot samaradorligini baholash va resurslarni qayta yo'naltirish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

R.Jacobs va hamkasblari[4] tibbiyot muassasalarida samaradorlikni o'lchashdagi murakkabliklarni va metodologik yechimlarni tahlil qiladilar. Ular o'zaro solishtirish uchun bo'lim-bo'lim o'lchovlar (input-output, xarajat-natija) va boshqaruv ko'rsatkichlari (bed turnover, patient days) ni taqdim etadilar. Mualliflar resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillar – xizmat yukining o'zgaruvchanligi, xarajat-navbat kattaligi va malakali kadrlar taqsimoti muhimligini ko'rsatadilar, bu esa moliyaviy rejalashtirish va byudjet ajratishda hisobga olinishi lozim.

A.Preker va A.Harding[5] davlat tibbiyot muassasalarining korporatizatsiyasi va bozor mexanizmlarini joriy etish orqali moliyaviy ta'minotni yaxshilashga bag'ishlangan tadqiqot olib boradilar. Ular bozor tamoyillarini (to'lov-yo'naltirish, natija-asosida grant ajratish) va mustaqil moliyaviy boshqaruv organlarini (boshqaruv kengashlari) tatbiq etish omillarini misollar bilan ko'rsatadilar. Mualliflar tahlillari shuni isbotlaydiki, korporativ model resurslardan foydalanishni samaradorligini oshiradi, biroq qat'iy nazorat va me'yoriy talablarni kuchaytirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va mavjud resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tizimli ravishda o'rganish maqsad qilingan. Ilmiy izlanishda nazariy va empirik tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Avvalo, sog'liqni saqlash sohasiga oid milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy tahlillar, statistik ma'lumotlar hamda ilgari chop etilgan ilmiy maqolalar asosida kontent-tahlil usuli qo'llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida respublika miqyosidagi davlat tibbiyot muassasalari, ular faoliyatining moliyaviy holati, budjet manbalari, davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar va ulardan foydalanish jarayonlari tanlab olindi. Predmet sifatida esa moliyaviy resurslarni boshqarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – ichki (tashkiliy tuzilma, boshqaruv sifati, kadrlar salohiyati, resurslarni taqsimlash mexanizmi) va tashqi (iqtisodiy vaziyat, demografik omillar, epidemiologik holat, davlat siyosati) jihatlar olindi. Tadqiqot davomida statistik tahlil vositalari yordamida sog'liqni saqlashga yo'naltirilayotgan mablag'larning dinamikasi, ulardan foydalanish samaradorligi va turli hududlar kesimida taqsimoti tahlil qilindi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) kabi manbalarning ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, ayrim tibbiyot muassasalarida o'tkazilgan chuqurlashtirilgan kuzatishlar va suhbatlar orqali amaliy holat tahlil qilinib, mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan sifatli (qualitative) yondashuv ham qo'llanildi. Ichki va tashqi omillarni tasniflash uchun




indikatorlar tizimi ishlab chiqildi va ular baholash mezonlari orqali o'zaro taqqoslandi. Tadqiqotda qo'llangan metodologik asoslar sog'liqni saqlashda moliyaviy boshqaruvni chuqur tushunish, mavjud ziddiyatli jihatlarni ochib berish hamda ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligi va resurslardan foydalanish samaradorligi bevosita ichki va tashqi omillar majmuasiga bog'liq. Ichki omillar tahlili jarayonida moliyaviy boshqaruvning markazlashganligi, budjet rejalashtirishdagi noaniqliklar, kadrlar salohiyatining yetarli darajada bo'lmashligi, shuningdek, mavjud moliyaviy mablag'larning funksional yo'nalishlarga nisbatan adolatli taqsimlanmasligi aniqlandi. Ko'plab tibbiyot muassasalarida moliyaviy rejalar tepadan tushirilgan standartlar asosida shakllantirilayotgani sababli, real ehtiyojlar va mahalliy sharoitlar inobatga olinmayapti. Bu esa mavjud resurslarning noto'g'ri yoki samarasiz yo'naltirilishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, o'rganilgan muassasalarning aksariyatida ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarining zaifligi va audit tizimining yetarli darajada ishlamasligi kuzatildi.

Tashqi omillar tahlilida esa iqtisodiy o'sish sur'atlari, davlat budjetidan sog'liqni saqlashga ajratiladigan ulush, demografik o'zgarishlar, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar va epidemiologik omillar alohida e'tiborga olindi. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashga yo'naltirilayotgan umumiy xarajatlar yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, bu mablag'larning hududlar kesimida adolatli taqsimlanmasligi ba'zi viloyatlarda moliyaviy resurslar yetishmovchiligini yuzaga keltirmoqda. Demografik bosim, xususan aholining qariib borayotgani, bolalar sonining o'sishi, surunkali kasalliklarning ko'payishi kabi omillar ham tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni orttirmoqda. Tadqiqot doirasida tibbiyot muassasalarining 2020–2024-yillar mobaynidagi moliyaviy hisobotlari asosida o'tkazilgan empirik tahlil natijalari jadval va grafiklar orqali tasvirlandi. Ushbu tahlillar, xususan, sog'liqni saqlash sohasida aholini qamrab olish ko'rsatkichlari bilan moliyaviy xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berdi (1-rasm).



1-rasm. 2020–2024-yillarda sog'liqni saqlash budjeti va aholi qamrovi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lar izchil ravishda oshib borgan – bu davr ichida umumiy budjet hajmi 3,2 trln so'mdan 5,9 trln so'mga yetgan. Shu bilan birga, tibbiy xizmat bilan qamrab olingan aholining ulushi ham 65 foizdan 81 foizgacha ortgan. Bu holat moliyaviy resurslarning oshirilishi aholining sog'liqni saqlash tizimiga kirish imkoniyatini kengaytirayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimiga qaratilayotgan e'tibor va mablag'lar aholini tibbiy xizmat bilan to'liqroq qamrab olishda ijobiy natijalar berayotganini tasdiqlaydi.



Natijalar shuni tasdiqladiki, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari ko'p jihatdan muassasa rahbariyatining boshqaruv salohiyatiga, ularning strategik rejalashtirishga yondashuvi va mavjud tashqi siyosiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan foydalana olish darajasiga bog'liq. Shuningdek, xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan, natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimining joriy qilinishi orqali muassasalarning o'zini o'zi moliyaviy rag'batlantirishga olib keladigan mexanizmlar shakllantirilsa, bu resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini keskin yaxshilashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiyot muassasalarining moliyaviy barqarorligi va ularning resurslardan foydalanish samaradorligi ko'p jihatdan ichki va tashqi omillar uyg'unligiga bog'liq. Ichki omillar qatorida muassasa boshqaruvining salohiyati, moliyaviy nazorat tizimining mavjudligi, resurslarni rejalashtirish va taqsimlashdagi samaradorlik, kadrlar bilan ishlash sifati va tashkilot ichidagi boshqaruv mexanizmlari alohida o'rin tutadi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy barqarorlik, davlat tomonidan ajratiladigan budjet mablag'lari, aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlar, shuningdek, sog'liqni saqlash siyosatining ustuvor yo'nalishlariga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, moliyaviy ta'minot va resurslardan foydalanishda mavjud tizimda ayrim nomutanosibliklar mavjud bo'lib, ular asosan moliyaviy rejalashtirishning markazlashganligi, mahalliy ehtiyojlarning to'liq inobatga olinmasligi, hamda mablag'larni maqsadli yo'naltirishdagi kamchiliklar bilan izohlanadi. Tibbiyot muassasalarining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish uchun samaradorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy etish, har bir muassasa darajasida o'zini o'zi moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish, moliyaviy va inson resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi ilg'or boshqaruv uslublarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslangan holda tibbiy xizmatlar sifatini baholash va bu baholash asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tartibga soluvchi mexanizmlarni shakllantirish zarur. Ushbu tadqiqot yakunlari sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy boshqaruvni yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni chuqur anglash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kutzin, J. (2013). Health financing for universal coverage and health system performance: concepts and implications for policy. *Bulletin of the World Health Organization*, 91(8), 602–611.
2. Roberts, M., Hsiao, W., Berman, P., & Reich, M. (2004). *Getting Health Reform Right: A Guide to Improving Performance and Equity*. Oxford University Press.
3. Kumbhakar, S. C., & Lovell, C. A. K. (2000). *Stochastic Frontier Analysis*. Cambridge University Press.
4. Jacobs, R., Smith, P. C., & Street, A. (2006). Measuring Efficiency in Health Care: Analytical Issues and Methodological Challenges. *Health Economics*, 15(7), 691–694.
5. Preker, A. S., & Harding, A. (2003). Innovations in Health Service Delivery: The Corporatization of Public Hospitals. *Health Affairs*, 22(2), 46–59.
6. Abdukarimov, B. (2020) *Sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy asoslari*, Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Adomaitiene, R. and Mačerinskas, J. (2022) 'Public health funding challenges in transitional economies', *International Journal of Health Economics*, 19(4), pp. 275–288.
8. Andreeva, E.Yu. (2019) 'Financial support mechanisms in healthcare institutions', *Finance and Business*, 8(1), pp. 33–41.
9. Karimov, I.A. (2021) *Tibbiy tashkilotlarda moliyaviy menejment*, Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
10. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan (2022) *Health sector financial reports 2019–2021*, Tashkent: MoH Press.
11. Mukhamedov, B.K. (2023) 'Tibbiyot muassasalarida budjet taqsimoti mexanizmlari', *Iqtisodiyot va Innovatsiya*, 7(3), pp. 112–120.
12. OECD(2020) *Health at a Glance: Europe 2020*. Paris: OECD Publishing. Available at: <https://doi.org/10.1787/4dd50c09-en>
13. Rasulova, N.T. (2021) 'Resurslardan samarali foydalanishning tibbiy-iqtisodiy jihatlari', *Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti*, 5(2), pp. 45–53.
14. WHO (2021) *Global spending on health: Weathering the storm*. Geneva: World Health Organization. Available at: <https://www.who.int/publications/i/item/9789240040508>
15. World Bank (2022) *Uzbekistan Health Sector Assessment*. Washington, D.C.: The World Bank. Available at: <https://documents.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>